



UDK: 334.012.64:331.5(575.1)

**Odiljon J. BAXRIDDINOV,**

*Assistent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy, O'zbekiston*

*E-mail: odiljonbaxriddinov28@gmail.com,*

*NavDU dotsenti, PhD U.Hayitov taqrizi asosida*

#### DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE NAVOIY REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS ROLE IN EMPLOYMENT PROVISION

Annotation

This article analyzes the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan and its role in ensuring youth employment. Particular attention is given to mechanisms for engaging young people in entrepreneurial activities, including local government meetings and support measures. The study also examines family entrepreneurship programs and regional development factors using the example of Navoi region. The findings demonstrate that the development of youth entrepreneurship is a key factor in achieving economic stability and improving public welfare.

**Key words:** Small business, private entrepreneurship, youth entrepreneurship, employment, economic development, family business, preferential loans, regional development, Navoi region, youth policy, social welfare, business entities, economic activity, labor market, innovative initiatives.

#### ПРОБЛЕМЫ И РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО РОЛЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане, а также его роль в обеспечении занятости молодежи. Особое внимание уделяется механизмам вовлечения молодежи в предпринимательскую деятельность, включая встречи с местными органами власти и меры поддержки. Рассматриваются программы развития семейного бизнеса и региональные особенности на примере Навоийской области. Результаты исследования показывают, что развитие молодежного предпринимательства является важным фактором экономической стабильности и повышения благосостояния населения.

**Ключевые слова:** Малый бизнес, частное предпринимательство, молодежное предпринимательство, занятость, экономическое развитие, семейный бизнес, льготные кредиты, региональное развитие, Навоийская область, молодежная политика, социальное благосостояние, бизнес-субъекты, экономическая активность, рынок труда, инновационные инициативы.

#### MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY VILOYATIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING RIVOJLANISHI VA UNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi hamda uning yoshlar bandligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Xususan, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, hududlarda tashkil etilayotgan uchrashuvlar orqali ularning muammolarini hal etish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari va Navoiy viloyati misolida hududiy rivojlanish omillari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, yoshlar tadbirkorligi, bandlik, iqtisodiy rivojlanish, oilaviy tadbirkorlik, imtiyozli kreditlar, hududiy rivojlanish, Navoiy viloyati, yoshlar siyosati, ijtimoiy farovonlik, biznes subyektlari, iqtisodiy faollik, mehnat bozori, innovatsion tashabbuslar.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida har bir davlatning barqaror rivojlanishi, avvalo, uning iqtisodiy tizimining samaradorligi hamda aholi bandligini ta'minlash darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur soha iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, yoshlarning mehnat bozoridagi o'rni va roli ortib borayotgan bir sharoitda ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki yoshlar nafaqat demografik jihatdan katta qatlamni tashkil etadi, balki iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ham maydonga chiqmoqda. Shu bois, yoshlar bandligini ta'minlash, ularni mustaqil daromad manbaiga ega qilish hamda tashabbuskorlik ruhini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasining yuqoriligi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ular uchun qulay institutsional va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish orqali bandlikni ta'minlash zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, oilaviy biznesni rivojlantirish, hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari izchil joriy etilmoqda. Ayniqsa, Navoiy viloyati misolida olib borilayotgan amaliy chora-tadbirlar yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va uning bandlikni ta'minlashdagi o'rni ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Shavkat Mirziyoyevning

murojaatnomasida yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Q.Abduraxmanov mehnat bozori tahlilida kichik biznesning bandlikni oshirishdagi rolini asoslab beradi. Xorijiy tadqiqotlarda, xususan C.Mirjam Van Praag ishlarida yosh tadbirkorlarning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi yoritilgan. Hududiy tadqiqotlar (Norov Sh.S. va boshqalar) Navoiy viloyatida sanoat salohiyati va iqtisodiy islohotlar yoshlar tadbirkorligi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Statistika va matbuot manbalari esa yoshlar ulushining yuqoriligi va tadbirkorlik orqali bandlikni oshirish zarurligini tasdiqlaydi. Umuman, adabiyotlar yoshlar tadbirkorligi iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda yoshlar tadbirkorligining rivojlanishi va uning bandlikka ta'siri tarixiy va tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy usul hamda normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari va davlat dasturlari tahlil qilinib, ularning yoshlar bandligiga ta'siri baholandi.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati, xususan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur soha iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi bandligini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samarali bandlik manbai sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, ushbu sohani izchil rivojlantirmasdan turib milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash mushkuldir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda ularning turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mazkur soha jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tayanchi hisoblangan mulkdorlar sinfi – o'rtasidagi sinfning shakllanishi va mustahkamlanishida muhim rol o'ynaydi [1].

Yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularni mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, tashabbuskor hamda mas'uliyatli shaxslar etib shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayonda tadbirkorlik faoliyati yoshlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham kamol topishiga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi [2].

Xalqaro miqyosdagi tahlillar ham yoshlar bandligi masalasi dolzarbligini tasdiqlaydi. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining "Yoshlar o'rtasida ishsizlik – 2017" hisobotiga ko'ra, dunyo bo'yicha 15-24 yoshdagi yoshlar orasida ishsizlik darajasi o'rtacha 12 foizni tashkil etadi. 2017-yilda 70 milliondan ortiq yoshlar ish bilan ta'minlanmagan bo'lib, bu ko'rsatkich jami ishsizlarning qariyb 35 foizini tashkil etadi. Mazkur holat yoshlar bandligini ta'minlash masalasi global miqyosda ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi [3].

Shu nuqtai nazardan, ishsizlikni kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri sifatida yangi biznes subyektlarini tashkil etish va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mustaqil daromad manbai bilan ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi [4].

Navoiy viloyati O'zbekistonning yirik sanoat zonasi hisoblanib, bu yer o'zining gigant korxonlari bilan mashhurdir. Bugungi kunda viloyatda 1 million 94 ming 700 nafar kishi isteqlol qilib kelmoqda [5], ularning 215 ming nafari 16-29-yoshli yoshlar tashkil qilmoqda [6]. Hududda yirik ishlab chiqarish markazlari asosiy bandlikni ta'minlasada, lekin bugun hududda tadbirkorlik ham sezilarli darajada oshib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar tadbirkorligiga qaratilayotgan e'tibor ham tom ma'noda, Respublika miqyosida yoshlar tadbirkorligini yuksalishiga xizmat qilmoqda. 2026-yil 24-fevral Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuv

o'tkazishi va 32 tashabbusning ilgari surilishi yoshlar hayotida tub bulurish yasadi desak mubolag'a bo'lmaydi [7].

Navoiy viloyatida yoshlar bandligi dolzarb masala sifatida katta urg'u berilmoqda. Xususan, Hududlarda hokimlar va yoshlar o'rtasida tashkil etilayotgan uchrashuvlar yoshlar muammolarini aniqlash va ularni samarali hal etishda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur uchrashuvlar orqali yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, xususan, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, moliyaviy resurslarga ega bo'lish hamda bandlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar bevosita o'rganilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, uchrashuvlar davomida yoshlar tomonidan asosan chorvachilik, parrandachilik, issiqxona xo'jaligini tashkil etish va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat boshlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish yuzasidan murojaatlar bildirilgan. Ushbu murojaatlar asosida tegishli choralar ko'rilib, ayrim yoshlar uchun moliyaviy ko'mak ajratilishi, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash hamda tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani kuzatiladi.

Jumladan, 2018-yilda hokim va yoshlar uchrashuvida, yosh tadbirkorlar uchun kredit mablag'lari ajratish, tikuv mashinalari bilan ta'minlash, shuningdek, kichik biznes faoliyatini kengaytirishga qaratilgan tashkiliy va moliyaviy yordamlar ko'rsatildi. Bu esa yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mustaqil daromad manbaiga ega qilish hamda hududlarda bandlik darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, uchrashuvlar doirasida yoshlar markazlari faoliyatini kengaytirish, kasb-hunar o'rganish imkoniyatlarini oshirish, ichki turizmni rivojlantirish va yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish masalalari ham muhokama qilindi. Mazkur yo'nalishlar yoshlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy faolligini ham oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir [8].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar jarayonida tadbirkorlik faoliyati, ayniqsa oilaviy biznesni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirish hamda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Har bir oila – tadbirkor" dasturining joriy etilishi mazkur yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu dastur doirasida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur dastur asosida jismoniy shaxslar, mikrofirmalar va kichik korxonalar, dehqon hamda fermer xo'jaliklari, shuningdek oilaviy tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Kredit mablag'lari odatda kam foiz stavkalari asosida, ma'lum imtiyozli davr bilan ajratilib, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa aholining o'zini o'zi band qilish darajasini oshirish, ayniqsa yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu dastur doirasida hududlarda turli yo'nalishlarda: chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik, tikuvchilik hamda xizmat ko'rsatish sohalarida ko'plab yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kredit mablag'lari evaziga aholining tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishi ortib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda hamda oilalarning daromadlari barqaror oshib bormoqda.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi aholining ijtimoiy faolligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash hamda jamiyatda mulkdorlar qatlamining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Natijada, aholi turmush darajasi yaxshilanib, hududlarning iqtisodiy salohiyati yuksalmoqda.

Umuman olganda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, kambag'allikni qisqartirish va aholining farovonligini oshirishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda [9]. Viloyatda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy

tafovutlarni kamaytirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash, Navoiy viloyatining olis va cho'l hududlarida yashovchi aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning bandligini ta'minlash va daromad manbalarini kengaytirish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Geografik jihatdan Konimex, Tomdi va Uchquduq kabi tumanlar Qizilqum cho'l hududida joylashgan bo'lib, tabiiy-iqlim sharoitlarining murakkabligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda hududlarning markazdan uzoqligi ushbu mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur hududlarda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa yoshlar va mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelgan. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Navoiy viloyatining olis cho'l tumanlari aholisi turmush darajasini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilinib, ushbu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yangi bosqichga olib chiqildi. Mazkur qaror asosida aholini boshqa hududlardan ixtiyoriy ko'chirish, ularni uy-joy bilan ta'minlash hamda yangi yashash joylariga moslashish jarayonini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan[10]. Qaror doirasida aholini rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish maqsadida turli moddiy yordamlar va imtiyozlar belgilandi. Xususan, ko'chib kelgan oilalarga bir martalik moddiy yordam ajratish, uy-joy bilan ta'minlash hamda kommunal va yashash xarajatlarini qoplashga qaratilgan kompensatsiyalar berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, oliy ma'lumotli mutaxassislarni hududlarga jalb etish, ularga qo'shimcha rag'batlantiruvchi sharoitlar yaratish orqali kadrlar salohiyatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur chora-tadbirlar bilan bir qatorda hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash muhim yo'nalish sifatida belgilandi.

Jumladan, aholiga imtiyozli mikro kreditlar ajratish, ularning tomorqa xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish orqali daromad manbalarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Bu esa, o'z navbatida, hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur qaror asosida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar Navoiy viloyatining olis cho'l hududlarida yashovchi aholi turmush darajasini oshirish, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish hamda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgan bo'lib, ularning izchil amalga oshirilishi mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, katta hayotga kirib kelayotgan yoshlarning tadbirkorlik sohasi orqali bandligini ta'minlab, yashash farovonligini ortishiga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda, xususan Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yoshlar bandligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, ularga moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish orqali ularning iqtisodiy faolligi sezilarli darajada oshmoqda.

Hududlarda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari, xususan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va yoshlar bilan ishlash tizimi, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadlarini barqaror oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, olis hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar hududiy tafovutlarni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umuman olganda, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks yondashuv mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, ishsizlikni kamaytirish hamda jamiyatda o'rta sinf shakllanishini ta'minlashda muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Muhammad M. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish orqali xususiy sektor rolini oshirishning ijtimoiy muhitga ta'siri //Innovation Science and Technology. – 2025. – T. 1. – №. 10. – S. 73-76.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr., T., "O'zbekiston nashriyoti" 2021-y.13-bet
3. Abduraxmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Do'stlik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3- nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «FAN» nashriyoti davlat korxonasi, 2019. – B. 279.
4. Van Praag C. M. Business survival and success of young small business owners //Small business yeconomics.–2003.– T.21.– №.1.– S.1-17.
5. Navstat.uz. Hududlar bo'yicha shahar va qishloq aholisi soni. URL:file:///C:/Users/Sozla.uz/Downloads/Hududlar%20bo%60yicha%20shahar%20va%20qishloq%20aholisi%20soni%20(1).pdf
6. Navstat.uz. Yosh guruhlari bo'yicha doimiy aholi soni.
7. 32 tashabbus — yoshlar siyosatida yangi strategik bosqich. URL:https://namangantoday.uz/?p=1890
8. Hududlarda hokim va yoshlar uchrashuvlari.// Do'stlik bayrog'i. – 2018 yil 27 iyul. – №60 (3823). – 1-bet.
9. Oilaviy tadbirkorlik-farovonlik garovi.// Do'stlik bayrog'i. – 2018 yil 25 sentabr. – №76 (3839). – 2-bet.
10. Navoiy viloyati olis cho'l hududi aholisining turmush darajasini yanada oshirishga doir qo'shimcha-chora tadbirlar to'g'risida // Do'stlik bayrog'i, 34-son (3693), 28-aprel 2017 yil 1-bet.
11. Baxriddinov O.J. "Mustaqillik yillarida o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning vujudga kelishi va uning yoshlar hayotida tutgan o'rni". "Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" № S/4(4) – 2024. 45-50-bb.
12. Baxriddinov O.J. "Sobiq sovet tuzumidan qolgan iqtisodiy meros, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va bozor huquqiy munosabatlarining shakllanishi" Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio' ilmiy-metodik jurnali 2024-yil dekabr 6/3 son. ISSN 2181-7138
13. Xayitov Sh.A., Norov Sh.S., Baxriddinov O.J. " Navoiy viloyati misolida zarafshon vohasida sanoat rivojlanishining tarixiy jihatlari", Zarafshon vohasini kompleks innovatsion rivojlantirish yutuqlari, muammolari va istiqbollari v-xalqaro ilmiy-amaliy anjumani., Navoiy 2024-yil.